



GUARANTEEING THE CONSTITUTIONAL DUTIES AND GENERAL MILITARY OBLIGATIONS OF INDIVIDUALS AND CITIZENS

Sh.O.Rasulov

Specialized Training Center of the National Guard of the Republic
of Uzbekistan

Senior Instructor of Weapons and Shooting Course Colonel

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17084267>

ARTICLE INFO

Received: 03rd September 2025

Accepted: 08th September 2025

Online: 09th September 2025

KEYWORDS

*Man, citizen, constitutional
duty, obligation, guarantee,
democratic society, country,
civil society, rule of law.*

ABSTRACT

The article addresses issues related to the fulfillment of constitutional duties and military service obligations of individuals and citizens. It is scientifically and analytically substantiated that the fulfillment of citizens' duties to the state is a guarantee of the survival, well-being, and prosperity of our country.

ГАРАНТИРОВАНИЕ КОНСТИТУЦИОННЫХ ОБЯЗАННОСТЕЙ И ОБЩИХ ВОИНСКИХ ОБЯЗАННОСТЕЙ ЧЕЛОВЕКА И ГРАЖДАН

Ш.О.Расулов

Специализированный учебный центр Национальной гвардии Республики
Узбекистан

Старший инструктор курса огневой подготовки и стрельбы полковник

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17084267>

ARTICLE INFO

Received: 03rd September 2025

Accepted: 08th September 2025

Online: 09th September 2025

KEYWORDS

*Человек, гражданин,
конституционный долг,
обязательство, гарантия,
демократическое общество,
страна, гражданское
общество, верховенство
права.*

ABSTRACT

В статье рассматриваются вопросы, связанные с обеспечением конституционных обязанностей и воинской повинности человека и гражданина. Научно и аналитически обосновано, что исполнение гражданами своих обязанностей перед государством является гарантией выживания, благополучия и процветания нашей страны.

INSON VA FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY BURCHLARINING VA UMUMHARBIY MAJBURIYATLARINING KAFOLATLANISHI

Sh.O'.Rasulov

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Ixtisoslashtirilgan o'quv markazi

Qurol-aslaha va o'q otish sikli katta o'qituvchisi polkovnik

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17084267>

ARTICLE INFO

ABSTRACT



Received: 03rd September 2025
Accepted: 08th September 2025
Online: 09th September 2025

KEYWORDS

Inson, fuqaro, konstitutsiyaviy burch, majburiyat, kafolat, demokratik jamiyat, mamlakat, fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat.

Mazkur maqolada inson va fuqarolarning konstitutsiyaviy burchlarning va umumharbiy majburiyatlarining kafolatlanishiga oid masalalarga munosabat bildirilgan. Fuqarolarning millat oldidagi majburiyatlarini amalga oshirishlari yurtimizni barhayotligi, farovonligi va ravnaqining kafolati bo'lib xizmat qilishi ilmiy-tahliliy jihatdan batafsil yoritilgan.

Kirish (Introduction). Demokratik jamiyat qurishni maqsad qilib qo'ygan har qanday davlatning demokratlashuviga xos xususiyatlarni ko'rsatuvchi shartlardan biri inson huquq va erkinliklarining qonunlarda to'liq belgilanishi hamda ularning ta'minlanishi uchun shart-sharoitlarning yaratilishidir.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyati va insonparvar demokratik huquqiy davlatni shakllantirish jarayoni ketayotgan hozirgi davrda inson huquqlari eng dolzarb masaladir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan fuqarolarning huquq va erkinliklari, ayni paytda, davlatning shu huquq va erkinliklarni ta'minlash yuzasidan ma'suliyatini ham mustahkamlaydi. Shuningdek, fuqarolar davlat hududida amal qiladigan Konstitutsiya va qonunlarga, belgilangan boshqaruv tartibiga rioya etishlari shart. Konstitutsiyani barcha bilishi, uning normalariga rioya etishi va hurmat qilishi lozim. Mana shundagina demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish uchun mustahkam zamin yaratiladi.

- **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi "Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir" nomli ma'ruzasida "Qonun ustuvorligi – bu davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari chiqarayotgan hujjatlar, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari faqat va faqat Konstitutsiya hamda qonunlarga muvofiq bo'lishi shart, deganidir. Shu boisdan ham barcha bo'g'indagi kadrlar, u xoh vazir, hokim yoki oddiy fuqaro bo'lsin, Konstitutsiya va qonunlarni puxta bilishi, ularning ijrosini to'g'ri tashkil etishi hamda birinchi navbatda bu qoidalarga butun jamiyat a'zolari qat'iy amal qilishi shart bo'lgan muhit yaratishimiz zarur", - deb ta'kidlaganlar [1, 46].

Fuqarolarning burchlari Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish, boshqalar huquqini hurmat qilish, tarixiy, ma'naviy va madaniy merosni asrab-avaylash, atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, soliq va yig'imlarni o'z vaqtida to'lash, Vatanni himoya qilish, harbiy xizmatni o'tash va hokazolarda namoyon bo'ladi.

Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburligi Bosh Qomusimizning insonparvarlik va tenglik tamoyillariga monand belgilangan bo'lsa, asos sifatida "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning 29-moddasi bilan hamohang keladi.



- **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Bilamizki, xalqimiz boy tarixiy, ma'naviy va madaniy yodgorliklar merosxo'ridir. Shu boisdan Konstitutsiyamizning 49-moddasida, "Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar. Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir", - deb belgilangan [2].

Hozirgi vaqtda xalqimizning xorijiy davlatlarga olib ketilgan bebaho boyliklarini qaytarish masalalari bilan maxsus komissiya shug'ullanmoqda. O'zbekistonning har bir fuqarosi xalqimizning tarixiy, madaniy, huquqiy boyliklar xazinasini ko'z qorachig'iday asrashi, uni kelgusi avlodlarga yetkazib berishni o'zi uchun ham farz, ham qarz deb bilishi zarur.

Har birimiz Konstitutsiyaviy burchlarimizni bajarish orqali davlat tomonidan belgilangan huquq va erkinliklarimizdan to'liq foydalanamiz. Ayrim yurtdoshlarimiz Konstitutsiya deganda ko'proq unda mustahkamlab berilgan huquqini tushunishadi. Aniqroq qilib aytganda, biror muammoga duch kelishgandagina konstitutsiyaviy huquqlarni talab qilishadi. O'zbekistonda inson va fuqaro atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburligi Konstitutsiyamizning 50-moddasida mustahkamlangan.

Asosiy Qonunimizning Ikkinchi bo'lim XI bobi "Fuqarolarning burchlari"ga bag'ishlangan bo'lib, uning 47-moddasida, "Barcha fuqarolar Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan burchlarini bajaradilar", - deb ko'rsatilgan. Bir qarashdayoq mazkur Konstitutsiyaviy talab zamirida mamlakatda qat'iy qonuniylikni ta'minlash maqsadi yotganligini anglash mumkin [3].

2019-yil 8-yanvarda ta'sis etilgan O'zbekiston Ekologik partiyasini siyosiy maydonga kelishi tabiiy muhitni asrashda katta qadam bo'ldi. O'zbekiston Ekologik partiyasi 2019-yil 24-yanvarda Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tkazildi. Bungacha O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Yer to'g'risida"gi, "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi, "Davlat sanitariya nazorati to'g'risida"gi, "Alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi, "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi muhim qonunlar qabul qilindi. Mazkur qonunlar fuqarolarning tabiat bilan bo'ladigan muloqotdagi majburiyatlarini belgilab berdi. Konstitutsiya O'zbekiston Respublikasining haqiqiy mustaqil davlat maqomiga ega ekanligiga qonuniy asos soldi, uning tegishli normalarida jamiyatning tuzilishida va davlat qurilishida fuqarolarning huquq va erkinliklarga erishishida sodir bo'lgan tub o'zgarishlar o'z aksini topdi va mustahkamlandi. Fuqarolarning Konstitutsiyaviy burchlaridan yana biri ularning qonun yo'li bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'imalarni to'lashga majburligidir.

Har bir barkamol inson uchun o'z Vatanini himoya qilish, uning ravnaai uchun xizmat qilish asosiy burchlaridan biridir. Bu haqda mavlono Fuzuliyning: - "Mening bitta hayotim bor, bordi-yu mingta hayotga eg bo'lgan taqdirda ham, Vatan uchun sarflagan bo'lur edim" deb aytgan so'zlari har birimiz uchun bebaho o'g'itdir. Zero, muqaddas hadisi shariflarda ham "Vatanni sevmoq iymondandur", - deyilgan.

Shuningdek, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev o'zlarining "Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar



ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ko‘rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga duchor qilmoqda” [4], - degan nutqlarida bizni yanada yurt himoyasiga dadilroq turishimizga chorlayotganlari sir emas.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, Vatanni himoya qilish burchi Konstitutsiyamizning 52-moddasida mustahkamlangan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish har bir fuqaroning burchi va fuqarolarning qonunda belgilangan tarzda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tashga majburligi keltirib o‘tilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muqaddimasida xalqaro huquqning umume’tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda, respublika fuqarolarning munosib hayot kechirishlarini ta‘minlashga intilib, insonparvar demokratik hududiy davlat barpo etish, fuqarolarning tinchligi va milliy totuvlikni ta‘minlash masalasi belgilab qo‘yilgan. Fuqarolarning harbiy va Qurolli Kuchlar rezervidagi xizmatni o‘tash “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi va “Qurolli Kuchlar rezervidagi xizmat to‘g‘risida”gi qonunlar asosida amalga oshiriladi [5].

Respublikada davlat xavfsizligi va millatlararo totuvlikni ta‘minlash Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning 2017-yil 7-fevraldagi O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF 4947-sonli Farmonida belgilangan bo‘lib, ustuvor yo‘nalishlardan beshinchisi aynan xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash, chuqur o‘ylangan va o‘zaro manfaatli amaliy tashqi siyosat yuritishga bag‘ishlangan.

Olib borilayotgan izchil siyosiy harakatlar harbiy sohada ham o‘z samarasini bermoqda. Buning isboti o‘laroq, 2017 yil 18 dekabrda yangi tahrirda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to‘g‘risida”gi 458-O‘RQ, 2018 yil 28 noyabrdagi “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va 2019 yil 12 sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarning harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi PQ-4447-sonli Qarori Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoev belgilab bergan vazifalar ijrosini ta‘minlash va davlat oldida harbiy burchini o‘tayotgan fuqarolarga yengillik yaratish orqali harbiy xizmatni o‘tash sifatini yanada yaxshilash maqsadida qabul qilindi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Demak, hurmatli fuqarolarimiz o‘zlarining huquq va erkinliklarini to‘la amalga oshirishini istasalar, avvalo, Konstitutsiyaviy burchlarini majburan emas, balki ongli ravishda, vijdonan bajarmoqlari lozim. Fuqarolarning millat oldidagi majburiyatlarini amalga oshirishlari kelajagi buyuk yurtimizni barhayotligi, farovonligi va ravnaqining kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T: - «O‘zbekiston»- 2017 46- bet.
2. Otamurodov S, Xusanov S., Raxmatov J. Ma‘naviyat asoslari. –T., 2002/



3. Axmedova M. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquqlari va burchlari. //Ilmiy-amaliy anjuman materiallari. –Andijon, 2015
4. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi "Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir" nomli ma'ruzasi. //Xalq so'zi, 2019-yil 9-dekabr.
5. Raxmonqulov X. Yuridik fanlarni rivojlantirish istiqbollari //Yuridik fanlarni rivojlantirishning dolzarb muammolari //Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –T.: TDYuI, 2006.
6. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017, 6-son, 70-modda.